



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 16-noyabr, № 238 (9133)

Yakshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



STRATEGIK SHERIKLIK VA ITTIFOQCHILIK MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo'lib turibdi.



Ko'ksaroy qarorgohida 15-noyabr kuni ikki davlat yetakchilari o'rtasida tor doiradagi muzokaralar bo'lib o'tdi.

O'zbekiston va Qozog'iston strategik sheriklik hamda taraqqiyot yo'lidan birgalikda borayotgan ishonchli ittifoqchilardir. Bu ikki davlat rahbarlarining mintaqaviy barqarorlik va

xavfsizlikni ta'minlash, uzoq muddatli sheriklikni rivojlantirish borasidagi qarashlari o'zaro mos kelayotganini ko'rsatadi.

Transport-kommunikatsiya yo'llarini shakllantirish, energetik hamkorlikni chuqurlashtirish, ekologiya masalalarida hamjihat pozitsiya shakllanishi

munosabatlarning yangi bosqichga ko'tarilganining amaliy isbotidir. Bu yo'nalishlarda qo'lga kiritilayotgan natijalar nafaqat ikki tomonlama manfaatni, balki butun mintaqaga uchun strategik ahamiyatni ifodalaydi.

(Davomi 2-betda).



KO'P QIRRALI ALOQALARNI YANADA MUSTAHKAMLASHNING DOLZARB MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

Ko'ksaroy qarorgohida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon bilan uchrashdi.



Yetakchilar O'zbekiston – Tojikiston do'stlik, yaxshi qo'shnichilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari yanada kengaytirishning dolzarb masalalarini muhokama qildilar.

O'zaro savdoni ko'paytirish bo'yicha muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlar

ko'rish, sanoat, energetika, qishloq xo'jaligi hamda boshqa ustuvor sohalarida kooperatsiya loyihalarini ilgari surishga alohida e'tibor qaratildi.

Faol madaniy-gumanitar almashinuvlar va samarali hududlararo aloqalarni davom

ettirish muhimligi ta'kidlandi.

Shuningdek, Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash yuzasidan fikr almashildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

OZARBAYJON BILAN AMALIY HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH MUHIMLIGI QAYD ETILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 15-noyabr kuni Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev bilan uchrashuv o'tkazdi.

Suhbat avvalida Ilhom Aliyev O'zbekiston yetakchisiga Maslahat uchrashuvida ishtirok etish taklifi uchun minnatdorlik bildirdi.

Davlatimiz rahbari, o'z navbatida, qardosh Ozarbayjon Prezidenti va xalqini joriy yil 8-noyabr kuni nishonlangan G'alabaning besh yilligi bilan samimiy tabrikлади.

O'zbekiston Prezidentining shu yil iyul oyida Ozarbayjonga davlat tashrifi davomida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida O'zbekiston – Ozarbayjon strategik sheriklik va ittifoqchilik

munosabatlari yanada rivojlantirish hamda mustahkamlashning dolzarb masalalarini muhokama qilindi.

Barcha darajalarda samarali almashinuvlar davom etmoqda. Joriy yil boshidan tovar ayirboshlash hajmi 15 foizga oshdi. Avtomobilsozlik, energetika, turizm va boshqa tarmoqlarda sanoat kooperatsiyasi bo'yicha qo'shma loyihalar faol pallaga kirgan.

Yetakchilar bo'lajak oliy darajadagi uchrashuv va tadbirlar rejasini ham ko'rib chiqdilar.

UMUMIY MADANIY VA MA'NAVIY MEROS MINTAQA MAMLAKATLARINING YAQINLASHISHIGA XIZMAT QILADI

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan mintaqa mamlakatlari va Ozarbayjon Prezidentlari O'zbekiston Prezidenti bilan birgalikda Toshkentdagi Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurdilar.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan markaz islom sivilizatsiyasining bebaho merosini asrab-avaylash va targ'ib qilishga bag'ishlangan noyob manbalar, ilmiy tadqiqot va ta'lim yo'nalishlarini bir joyga jamlagan tariximizdagi ilk majmua bo'ldi.

Majmua milliy me'moriy an'analar va zamonaviy bezaklar uyg'unligida barpo etildi. Inshootning to'rt tomonida balandligi 34 metrli peshtoqlar, o'rta qismida esa 65 metrli milliy uslubdagi gumbaz qad rostlagan.

Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev, Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon, Qirg'iziston Prezidenti Sadir Japarov, Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev Prezident Shavkat Mirziyoyev hamrohligida musulmon olamining bebaho ma'naviy durdonasi sanalgan Usmon Mus'hafi saqlanayotgan Qur'oni karim zaliga tashrif buyurdilar. Qur'onning eng qadimiy qo'lyozmalaridan biri bo'lgan ushbu nodir manba ulkan tarixiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lib, mintaqamiz xalqlarining sivilizatsiyaviy o'ziga xosligini shakllantirgan chambarchas ma'naviy rishalarimizni ifoda etadi.

Yetakchilar, shuningdek, "Islomdan avvalgi sivilizatsiyalar", "Birinchi Renessans", "Ikkinchi Renessans" hamda "Yangi O'zbekiston – yangi Renessans" bo'limlari bilan tanishdilar.

Ularda buyuk allomalarimiz Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Mansur Moturidiy, Bahouddin Naqshband va boshqa ulug' ulamolarning boy ilmiy va ma'naviy merosi keng yoritilgan. Ko'rgazmada somoniylar, qoraxoniylar, xorazmshohlar, temuriylar va boshqa sulolalar davriga oid qo'lyozma nashrlar va ularning qadimgi o'zbek tiliga tarjimalari ham mavjud.

Yetakchilar mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlash, ma'naviy-ma'rifiy loyihalarni ilgari surish va umumiy gumanitar

qadriyatlarni rivojlantirish muhimligini ta'kidladilar.

Mintaqaning boy umumiy merosini saqlash va targ'ib qilish borasidagi O'zbekistonning keng ko'lamlı sa'y-harakatlariga yuqori baho berildi. Majmua zamonaviy tadqiqot markazi bo'lib xizmat qilishiga, mintaqa mamlakatlari o'rtasida ilmiy, ta'lim va madaniy hamkorlik uchun yangi ufqlar ochishiga ishonch bildirildi.

Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif davomida Markaziy Osiyo davlatlari va Ozarbayjon Prezidentlari "Kelajak merosi" xalqaro mukofoti sovrindorlarini taqdirlash marosimida ishtirok etdilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan ta'sis etilgan xalqaro mukofot adabiyot, madaniyat, san'at, fan, ta'lim va raqamli texnologiyalar sohalarida katta yutuqlarga erishgan yurtimiz va xorijiy ijodkorlarni rag'batlantirishga qaratilgan.

Markaziy Osiyo mamlakatlari va Ozarbayjon vakillari: Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti (TURKSOY) bosh kotibi, Qirg'iziston xalq yozuvchisi Sulton Rayev "Adabiyot" nominatsiyasida, Tojikiston xalq shoiri Davlat Safarzoda "Madaniyat" nominatsiyasida, M. Avezov nomidagi Qozog'iston Milliy drama teatri aktyori Yerkebulan Dayirov "Teatr va kino" yo'nalishida, Ozarbayjon xalq artisti Alim Gasimov "Musika va raqs" nominatsiyasida, Turkmaniston xalq artisti Babasari Annamiradov "Tasviriy va amaliy san'at" yo'nalishida, O'zbekiston Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi xalqaro markaz direktori o'rinbosari, qishloq xo'jaligi fanlari doktori Dilduza Egamberdiyeva "Fan, ta'lim va raqamli texnologiyalar" nominatsiyasida tanlovning ilk g'oliblari bo'ldi.

Yetakchilar huzurida laureatlarga mukofot haykalchasi, diplom hamda 10 ming dollarlik pul mukofoti topshirildi.

O'ZA.

TURKMANISTON PREZIDENTI DAVLAT TASHRIFI BILAN O'ZBEKISTONDA BO'LADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov 16-17-noyabr kunlari davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo'ladi.

Oliy darajadagi muzokaralar kun tartibiga O'zbekiston – Turkmaniston strategik sheriklik munosabatlari yanada rivojlantirish va mustahkamlash, ko'p qirrali hamkorlikni, birinchi navbatda, siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport, suv-energetika, madaniy va gumanitar sohalarida kengaytirish masalalari kiritilgan.

Tashrif doirasida davlat rahbarlari "Shovot – Toshovuz" chegaraldı savdo zonasining ochilish marosimida ham ishtirok etishadi.

O'zbekiston va Turkmaniston yetakchilari xalqaro hamda mintaqaviy masalalar yuzasidan fikr almashadilar.

Sammit yakunida Qo'shma bayonot qabul qilinishi va ikki tomonlama hujjatlar to'plami imzolanishi rejalashtirilgan.

Turkmaniston Prezidenti, shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvida ishtirok etadi.

O'ZA.

O'ZBEKISTON VA QIRG'IZISTON PREZIDENTLARINING UCHRASHUVI BO'LIB O'TDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov bilan uchrashdi.

Oliy darajadagi kelishuvlarning ijrosi, birinchi navbatda, tovar ayirboshlashni ko'paytirish, sanoat, transport, energetika va infratuzilma sohalaridagi muhim kooperatsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish choralari ko'rib chiqildi.

Faol hududlararo aloqalar va madaniy-gumanitar almashinuvlarni davom ettirish muhimligi ta'kidlandi.

Prezidentlar mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

O'zbekiston – Turkmaniston: BARQAROR KELAJAK YO'LIDAGI HAMJIHATLIK

Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov 16-17-noyabr kunlari davlat tashrifi bilan O'zbekistonda bo'ladi.

Tashrif davomida Turkmaniston yetakchisi Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvida ishtirok etadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston – Turkmaniston munosabatlari ko'p asrlik yaxshi qo'shnichilik aloqalari va umumiy tarixiy, madaniy hamda ma'naviy qadriyatlarga asoslangan barqaror sur'atlar va izchil rivojlanishni namoyish etdi.

EZGU GʻOYANING HAYOTIY IFODASI

Bugun lugʻatimizda “Oʻzbekiston tashabbuslari” degan ibora paydo boʻldi. Bu tushuncha tinchlik, ishonchli hamkorlik, yaqin qoʻshnichilik maʼnosida dunyo xalqlari tilida ham jaranglamogda.

Haqiqatan ham, Markaziy Osiyoning yangi davrga qadam tashlagani, mintaqaviy tinchlikning barqarorlashgani, avvalo, Oʻzbekiston yetakchisining xalqparvar, uzoqni koʻzlagan adolatli pragmatik siyosati natijasidir. Dunyo shitob bilan oʻzgarayotgan, turli mintaqalardagi nizolar tinchlik va xavfsizlikka jiddiy tahdid solayotgan bir paytda Oʻzbekiston har qanday ziddiyatni faqat diplomatiya, muzokara, tinchlik yoʻli bilan hal etishning qatʼiy tarafdori ekanini taʼkidlab kelmoqda. Bu sohadagi amaliy qadamlarning samarasi esa koʻzga yaqqol tashlanyapti.

Doʻstlik, totuvlik, xayrli munosabatlar mintaqada farovon hayot kechirishning asosi boʻlib xizmat qilmoqdaiki, bundan, birinchi navbatda, shu yurtning odamlari naf koʻryapti. Oʻzgarishlar, yangilanishlar ular hayotida aks etmoqda. Yaxshi qoʻshnichilik munosabatlari, chegaralarning ochilishi va nazorat-kirish punktlarining tashkil qilinishi Markaziy Osiyo davlatlari bilan konstruktiv muloqot natijasida amalga oshdi.

Amaliy harakatlar, kelajak uchun masʼuliyat, yaxshi

qoʻshnichilik, doʻstlik va oʻzaro manfaat tamoyillariga sodiqlik mana shu muhitni paydo qildi. Ramziy maʼnoda aytganda, yaqin yillargacha qoʻshni davlatlar bilan orada paydo boʻlgan koʻrinmas devorlar oʻrnini koʻpriklar egalladi.

Agar eʼtibor qilsak, bu koʻprikning tamal toshlari Prezidentimiz mamlakat rahbari boʻlib ish boshlagan birinchi kunlarda qoʻyilganiga guvoh boʻlamiz. Davlatimiz rahbarining birinchi safarini eslaylik. Juda koʻpchilik, xorijiy ekspertlar ham, shubhasiz, yangi davlat rahbari oʻzining ilk davlat tashrifini rivojlangan mamlakatlardan boshlashini taxmin qilgan edi. Prezidentimiz esa birinchi davlat tashrifini 2017-yil mart oyida qoʻshni Turkmaniston Respublikasiga amalga oshirdi. Hech esimdan chiqmaydi, Xalqaro xotin-qizlar bayrami kuni tantanasida tashriflarini eʼlon qilib, Oʻzbekiston onalaridan duo olgan edi. Demak, birinchi kundanoq Markaziy Osiyo – Oʻzbekistonning tashqi siyosatdagi eng ustuvor yoʻnalishi deb belgilangan. Bu bejiz emas edi. Chunki qator muammolar oʻz

yechimini kutar, ularni esa faqat oqilona strategik hamkorlik munosabatlari tufayligina hal etish mumkin edi.

Birinchi marta 2018-yilda Prezidentimizning tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi Ostona shahrida boshlangan edi. Aynan oʻsha tashabbus tufayli mamlakat yetakchilarining samarali muloqoti bir necha yildan buyon muntazam va izchil oʻtkazib kelinmoqda.

Natijada qisqa vaqt mobaynida mintaqada mutlaqo yangi siyosiy muhit yaratildi. Bu xavfsizlik, barqaror rivojlanishni taʼminlashga xizmat qilib kelayotgan qator tashabbus-tadbirlarga yoʻl ochdi.

Ayni kunlarda ham Toshkent Markaziy Osiyo yetakchilarining navbatdagi sammitiga mezbonlik qilyapti. Ushbu nufuzli muloqot mintaqaviy birdamlikni yangi bosqichga olib chiqishi, hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga xizmat qilishi, shubhasiz. Prezidentimiz bir necha yil ilgari “Markaziy Osiyo – bizning umumiy uyimiz!” deb eʼlon qilgan edi. Mazkur nufuzli anjuman ana shu gʻoyaning amaliy ifodasi sifatida mintaqa davlatlarini yanada jipslashtiradi.

Komila KAROMOVA,
Oliy Majlis Senati aʼzosi.

AZALIY DOʻSTLIK VA ISHONCHNING YORQIN NAMUNASI

Koʻksaroy qarorgohida boʻlib oʻtgan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozogʻiston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev oʻrtasidagi samarali muzokaralar mamlakatlaro azaliy doʻstlik va strategik ishonchning yorqin namunasi boʻldi. Qozogʻiston Prezidentining bu safari oʻzaro ittifoqchilik munosabatlarni taraqqiyotida tarixiy voqea sifatida yangi davrni boshlab berdi.

Tashrif doirasida oʻtkazilgan Oliy davlatlararo kengashning ikkinchi yigʻilishida ikki tomonlama kun tartibining eng muhim masalalari atroflicha muhokama etildi. Ayniqsa, iqtisodiy hamkorlik, savdo aylanmasi va sanoat kooperatsiyasini yanada chuqurlashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Shuni alohida taʼkidlash zarurki, joriy yil boshidan tovar ayirboshlash 15 foizga oʻsib, qariyb 4 milliard dollarga yetmoqda. Bu raqamlar oʻzaro hamkorlikning amaliy va istiqbolli ekanini yaqqol koʻrsatadi. 2030-yilga borib oʻzaro tovar aylanmasi hajmini 10 milliard dollarga yetkazish boʻyicha aniq rejalar va mexanizmlar qabul qilingani esa davlatlarimiz oʻrtasidagi oʻzaro ishonch va pragmatik yondashuvning yorqin ifodasidir.

Toshkentda ochilgan “Markaziy Osiyo” xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazi ikki tomonlama iqtisodiy hamkorlikning yangi modelini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Shu bilan bir qatorda, umumiy qiymati 1,3 milliard dollarlik yangi loyihalarga start berilgani, transport logistikasi va energiya sohasidagi qoʻshma tashabbuslar kelgusi yillarda hamkorligimizni yanada mustahkamlaydi.

Kobul TURSUNOV,
Oliy Majlis Senati aʼzosi.

DUNYOGA OʻRNAK BOʻLAYOTGAN SIYOSAT

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Toshkentda boʻlib oʻtayotgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining navbatdagi Maslahat uchrashuvi oldidan eʼlon qilingan “Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida” nomli dasturiy maqolasida suv resurslari bilan bogʻliq masalaga ham alohida eʼtibor berilgani bejiz emas. Aynan ushbu masala ham mintaqa davlatlari oʻrtasida turli itxtiloflarga sabab boʻlayotgan edi.

Maʼlumki, Markaziy Osiyo davlatlari bir-biri bilan uzviy bogʻliq boʻlgan umumiy suv resurslariga ega. Birgina Oʻzbekistonning oʻzi 80 foiz suvni tashqaridan oladi. Qozogʻiston va Turkmaniston ham qoʻshni davlatlardan oqib keladigan Amudaryo va Sirdaryo suvi bilan bogʻlangan. Demak, yuqorida joylashgan davlatlarda suv bilan bogʻliq har qanday oʻzgarish quyidagi mamlakatlarga taʼsir etmasdan qolmaydi. Shu bois azaldan qoʻshni boʻlgan davlatlar oʻrtasida ushbu masalani hal etmay turib, mintaqada barqaror tinchlik va taraqqiyotni kafolatlab boʻlmaydi.

Bu masalaning strategik ahamiyatini Oʻzbekiston misolida koʻradigan boʻlsak, mamlakatimizda suvning 90 foizdan ortigʻi qishloq xoʻjaligiga sarflanadi. Yetarlicha suv boʻlmas ekan, energiya, oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash, tabiat sofligini saqlash haqida gapirish beryoqda.

Mamlakatimiz aholisi yaqin yillarda 40 millionga yetadi. Albatta, bu tabiiy ravishda suvga boʻlgan ehtiyojini ham bir necha barobar oshiradi. Masalan, aholimizning ichimlik suviga talabi 2030-yilga borib 2,3 milliard kub metrda 3 milliard kub metrga yetishi kutilyapti. Qolaversa, sanoat va energetika sohalari rivojlanib, yillik suv isteʼmoli 1,9 milliard kub metrda 3,5 milliard kub metrga yetadi.

Iqlim oʻzgarib, suvning asosiy manbasi hisoblangan muzliklarning katta tezlikda erishi natijasida asosiy daryolarda yildan-yilga suv kamayib borayotgani ham ushbu masalaning naqadar dolzarbligini koʻrsatadi. Yaʼni mintaq

davlatlari oʻrtasida suv resurslari boʻyicha ochiq va manfaatli kelishuvlar tuzilmas ekan, ming yillar davomida qoʻni-qoʻshni boʻlib yashagan xalqlar oʻrtasida haqiqatan ham ziddiyatlar paydo boʻlishi tayin edi.

Albatta, bularning barchasi qoʻshni davlatlardan yanada hamjihat boʻlib harakat qilishni taqozo etayotgan edi. Shu jihatdan, bugungi kunlardagi hamkorligimizni mustahkamlash shunchaki siyosiy maqsad emas, balki strategik zarurati.

Davlatimiz rahbarining maqolasida qayd etilganidek, aynan Maslahat uchrashuvlari formati yoʻlga qoʻyilgach, mintaqaviy hamkorlik tarixida tub burilish yasaldi. Markaziy Osiyo yetakchilari koʻp yillar mobaynida birinchi marta tashqi vositachilarsiz tizimli va muntazam muloqotni boshladi hamda bu ishonchga, ochiqlik va umumiy manfaatlarni anglashga asoslangan yangicha siyosiy tafakkur ramziga aylandi. Maslahat uchrashuvlari doirasidagi muloqotlar orqali oʻzaro itxtiloflarga sabab boʻlishi mumkin sanalagan qator kelishmovchiliklarni bartaraf etish va ishonchsizlikdan haqiqiy hamkorlikka oʻtishga erishildi. Buni nafaqat Markaziy Osiyoning, balki butun dunyoning yutugʻi sifatida baholasaq toʻgʻri boʻladi. Zero, davlatlarning, mintaqada hamda qitʼalarning tinchligi va taraqqiyoti dunyoning tinchligi hamda taraqqiyotidir.

Nigora LUTFULLAYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

MUSHTARAK INTILISHLAR SAMARASI

Madaniyati, dini, urf-odat va qadriyatlari yaqin boʻlgan Markaziy Osiyo davlatlari bugun nafaqat azaliy aloqalarini qayta tikladi, balki xalqaro hamjamiyatga oʻzaro ishonch, yaxshi qoʻshnichilik va hurmat asosiga qurilgan yagona subyekt sifatida oʻzini namoyon qilmoqda. Sodda aytganda, qardosh davlatlar ichki va tashqi siyosatda tom maʼnoda yangi, tarixiy ahamiyatga molik bosqichga qadam qoʻymoqda.

Bugun geosiyosiy vaziyat izdan chiqib, xatarlar kuchaygan, bir mintaqada, hatto yon qoʻshnilar oʻrtasida ziddiyatlar paydo boʻlib, iqtisodiy aloqalar janjiri uzilgan sharoitda Markaziy Osiyo davlatlarining har jihatdan birlashuvi, shubhasiz, notinch dunyoga namuna boʻlmoqda.

Xalqimizning “Yon qoʻshning – jon qoʻshning”, degan purmaʼno hikmati haqiqiy maʼnoda oʻz ifodasini topyapti. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida” nomli maqolasida taʼkidlaganidek, qoʻshnichilik – xavf emas, imkoniyat, bir tarafning muvaffaqiyati – barchaning yutugʻidir.

Bir paytlar bizni ajratib turgan chegaralar bugun doʻstlik va hamkorlik koʻprigiga aylandi.

Qoʻshni xalqlar yana bordi-keldilarini tiklab, yaxshi kunlarini birga nishonlayapti. Quda-andaligini davom ettiryapti. Muammolarini hamjihatlikda, bamaslahat hal qilyapti. Yangi oʻtkazish punktlari ochildi, avia va temir yoʻli, avtobuslar qatnovi yoʻlga qoʻyildi. Eng muhimi, qardosh xalqlar mintaqada boʻlayotgan barcha ijobiy oʻzgarishlarni oʻzlarining kundalik hayotida his etyapti. Birgina natija: mintaqada mamlakatlarning umumiy sayyohlik oqimida ichki mintaqaviy turizmning ulushi 80 foizdan oshdi.

Markaziy Osiyo davlatlari oʻz jadal taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qoʻyayotgan bir paytda iqlim oʻzgarishi, energetika, suv va oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish

Abdulkhakim ESHBOYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Oliy Majlis
Qonunchilik palatasida

MAQSADLI INDIKATORLAR IJROSI VA TAHLILIY NATIJALAR

Maʼlumki, “2025-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti toʻgʻrisida”gi Qonunga muvofiq, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi vazirlik va idoralarning respublika byudjetidan ajratiladigan byudjet mablagʻlaridan foydalanish toʻgʻrisidagi, shuningdek, rivojlanirish dasturi maqsadli indikatorlarining bajarilish holati haqidagi hisobotlarini eshitishni amalga oshiradi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qoʻmitasi majlisida mazkur Qonunda belgilangan talablardan kelib chiqib, Adliya vazirligi tomonidan 2025-yilning 9 oyi davomida byudjet va byudjetdan tashqari mablagʻlar hisobidan belgilangan maqsadli koʻrsatkichlarga erishilishi hamda mablagʻlarning sarflanishi yuzasidan vazirlik axboroti eshitildi.

Taʼkidlanganidek, hisobot davrida vazirlik tomonidan 225,8 mlrd. soʻm mablagʻ yoki 2025-yilda belgilangan rejadagiga nisbatan 69,0 foiz mablagʻ ishlatilgan.

Majlisda vazirlikka yuklatilgan 18 ta maqsadli koʻrsatkichning har biriga toʻxtalib, bajarilishi kechikayotgan koʻrsatkichlar boʻyicha masʼullarning axboroti eshitildi.

Shuningdek, joriy yilning 9 oyi davomida adliya organlari va

muassasalari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish, ularning murojaatlarini koʻrib chiqish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarining natijalari ham tahlil etildi.

Mazkur masala boʻyicha deputatlar oʻz taklif va mulohazalarini bildirdi. Murojaatlarni mazmunan koʻrib chiqish, ularni vakolatli organlarga toʻgʻri yoʻnaltirishda aholining huquqiy bilimini oshirish muhim ahamiyat kasb etishi, vazirlkning “1008 – ishonch telefoni” orqali murojaatlarni qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirish, bu jarayonda sunʼiy intellekt texnologiyalaridan keng foydalanish zarurligi ham taʼkidlandi.

Eshituv yakunida kun tartibidagi masalalar yuzasidan qoʻmitaning tegishli qarorlari qabul qilindi.

“Xalq soʻzi”.

TARAQQIYOTGA QARATILGAN TAKLIF VA TASHABBUSLAR

Oʻzbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida 13-noyabrda boshlangan “Markaziy Osiyo: umumiy maʼnaviy-maʼrifiy meros – umumiy kelajak” mavzuidagi xalqaro kongress yakuniga yetdi.

Forum



Soʻz – anjuman ishtirokchilariga

Lachin NURMUHAMMEDOVA,
Turkmaniston Respublikasi Milliy kutubxonasi
huzuridagi Respublika madaniyat markazi
direktori:

– Ushbu nufuzli tadbir nafaqat ilmiy muhokama, balki qardosh xalqlar oʻrtasidagi samimiy muloqot anjumanini boʻldi. Biz – Markaziy Osiyo xalqlari tarixan bir ilididan ozuqa olib kelmoqdamiz. Bugun ana shu maʼnaviy bogʻlanishni yangi zamon talablariga mos ravishda mustahkamlash har birimiz uchun sharafli vazifadir.

Forum davomida madaniy merosni asrash va zamonaviy usullarda taqdim etish masalalari yuzasidan qimmatli fikrlar almashdik. Xususan, Turkmaniston bilan Oʻzbekiston muzeylari, kutubxonalari va ilmiy markazlari oʻrtasida raqamlashtirish, qoʻlyozmalarni elektron formatda taqdiq qilish hamda arxeologik topilmalarni oʻzaro taqdim etish boʻyicha hamkorlik imkoniyatlari muhokama qilindi. Fikrimcha, bu kabi tashabbuslar nafaqat madaniy yaqinlikni kuchaytiradi, balki yosh avlod ongida umumiy tarix va yagona maʼnaviyat tuygʻusini mustahkamlaydi.

Farxad GULIYEV,
Ozərbayjon Fanlar akademiyası milliy instituti
direktori:

– Oʻzbekiston Prezidentining bunday loyihaga qoʻl urgani mamlakat tarixida yangi bir Renessans davriga qadam qoʻyilayotganining ifodasidir. Bu jarayonda qatnashishimiz, mana shunday ulkan ishlarda bir qardosh davlat sifatida hissamiz qoʻshilishi bizni ham benihoya mamnun etmoqda. Oʻzbekiston zaminida yashab oʻtgan ulugʻ siymolar ayni paytda bizning ham ulugʻ ajdodlarimizdir. Shu bois tarixiy merosni taqdiq qilish, oʻrganish ishlarida koʻmakdosh boʻlishni burchimiz deb bilamiz. Bu borada yangi nasl, yaʼni yosh avlodlarimiz hamfikr boʻlishi, mazkur mavzular doirasida chuqur izlanishlar olib borishi zarur. Bugun yoshlarning mana shunday intilishlariga katta ehtiyojimiz bor. Oʻzbek, ozarbayjon, turk, qirgʻiz, qozoq, turkman yoshlari, garchi turli oʻikalarda yashasalar-da, bir madaniyatga mansub ekanliklarini idrok etishlari lozim. Bu masalada ushbu markazning roli buyuk va biz bunga dastak boʻlishga doim tayyormiz.

Farhod MAQSUDOV,
Oʻzbekiston Fanlar akademiyası Milliy arxeologiya
markazi direktori, tarix fanlari doktori, professor:

– Markaziy Osiyo mintaqasi ham jugʻrofiy, ham tarixiy jihatdan yaxlit oʻlka sanaladi. Bugungi kunda siyosiy tomondan

Forum davomida olimlar, sanʼatshunoslar va taʼlim sohasi vakillari oʻrtasida keng muloqot tashkil etildi. Unda umumiy tarixiy merosni asrash, zamonaviy hamkorlik shakllarini izlash, maʼnaviyat gʻoyalarini mustahkamlash va boshqa shu kabi muhim masalalar muhokama qilindi. Jumladan, islomning maʼrifiy missiyasi, yoshlarni bagʻrikenglik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, zamon talablariga mos diniy taʼlim tizimini takomillashtirish masalalari oʻrtaga tashlandi. Qadimiy qoʻlyozmalarni oʻrganish va arxeologiya hamda tarix sohalarida qoʻshma loyihalarni amalga oshirish, muzey faoliyatini raqamlashtirish, ekspozitsiya yaratishda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish va professional tajriba almashish tashabbuslari ham koʻrib chiqildi.

Shuningdek, milliy kinoagentliklar rahbarlari bilan boʻlib oʻtgan muhokamalarda kino sanʼatini rivojlantirish, buyuk tarixiy shaxsiyatlar va madaniy meros haqida hamkorlikda filmlar yaratish hamda yosh rejissyorlarni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha kelishuvlarga erishildi. Adabiy aloqalarni mustahkamlash, badiiy tarjima maktablarini qayta tiklash va yosh ijodkorlarni qoʻllab-quvvatlash tashabbuslari ilgari surildi.

Yurtimizda qizgʻin ruhda oʻtkazilgan mazkur xalqaro anjuman mintaqaning tarixiy birligini, madaniy merosining boyligi va maʼrifiy salohiyatini yana bir bor namoyon qildi. Taklif etilgan gʻoya va tashabbuslar barqaror taraqqiyot, oʻzaro hurmat va maʼnaviy yuksalish uchun asos boʻlib xizmat qiladi.

oltita davlatga boʻlinib ketgan bu hudud qadimdan oʻzining geografik birliklari – choʻllari, togʻlari, daryolari, dasthlari, unda yashagan insonlari bilan yagona bir madaniy diyor boʻlgan. Turli sabablarga koʻra mazkur mintaqa boʻlinib ketganiga qaramay, unda yashagan elatlar bir-biri bilan tarixiy taqdimi, tillarni, dinlarni, madaniyatlarini oʻrtqolashgan. Agar Markaziy Osiyo bugungi kunda jahon koʻlamida oʻzining soʻzini mustahkam soʻzlay oladigan mintaqa oʻlaroq chiqsa, dunyo siyosiy sahnasida oʻz oʻrnini egallaydi, ovozi yanada balandroq yangraydi. Oʻzbekiston hukumati va yon-atrofdagi qoʻshni davlatlar bu zarurati toʻgʻri tushungan holda madaniy, maʼrifiy jihatdan oʻzaro integratsiyalashuv ustida ish olib bormoqda.

Prezidentimiz tashabbusi bilan bir necha yillardan buyon yirik majmua – Oʻzbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini barpo qilish ustida ish olib borildi. Koʻplab olimlar, tarixchi arxeologlar, sanʼatshunoslar, adabiyotshunoslar qizgʻin mehnat qilishdi. Mana shu muhtasham majmuada oʻtkazilgan ushbu anjumanda butun Markaziy Osiyo va Ozarbayjondan hukumat vakillari, yirik olimlar, mutaxassislar qatnashdi. Birgalikdagi muhokamalarda oʻlkarimiz madaniy, tarixiy va geografik jihatdan yaxlit boʻlgani ilmiy jihatdan yana bir bor isbot etilgani, oʻylaymanki, anjumanning eng katta yutugʻidir.

Gʻolib BAHROMOV
("Xalq soʻzi").

“Qamchiq” va “Darband” dovonlaridan oʻtgan temir yoʻllar uchun Janubiy Koreyadan tezyurar poyezdlar xarid qilinadi.

